

LUTFIY VA ATOYI G`AZALLARIDA ISHQ TALQINI

*Xoliqulova Zarnigor Azim qizi**Termiz davlat universiteti**o`zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi**o6984404@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`z zamonasining “malik ul-kalomi” deb e`zozlangan Mavlono Lutfiy va sinchkov nigoh, baland did egasi bo`lgan Atoyi g`azallaridagi ilohiy ishq mavzusi tahlilga tortiladi.

**Kalit so`zlar:** g`azal, “malik ul-kalom”, ilohiy ishq, tasavvuf, may, lirik qahramon, ko`ngil.

Abstrakt: In this article, the subject of divine work in the ghazals of Atoyi, who is revered as the “malik ul-kalomi” of his time Mavlono Lutfiy a gracious and meticulous gaze, the owner of a high taste, is subject to analysis.

Key words: Ghazal,” malik ul-kalom”, divine ishq, mysticism, may, lyrical hero, coon.

O`zbek mumtoz adabiyoti tarixida shunday buyuk shoirlar va g`azalnavislar o`tganki, ular o`zlarining go`zal g`azallari, ifodali ruboiylari va har misrasida o`zgacha ma`no ifodalaydigan tuyuqlari bilan mana necha asrlar bo`ldiki, o`z ko`rkini yo`qotmay, ma`no nozikliklari bilan adabiyot shaydolarining ko`nglidan chuqur o`rin egallab kelmoqda. Bunday ijodkorlarga 15-asrning ikkinchi yarmigacha bo`lgan davrlardagi eng mashhur lirik shoirlar – Lutfiy va Atoyini na`muna sifatida keltirib o`tishimiz mumkin. Bu ikki shoir ko`plab adabiy janrlarda ijod qilgan bo`lsalar-da, g`azal janrida yuksalish cho`qqisiga chiqqanlar. Shu boisdan ham biz bu ikki shoirni buyuk g`azalnavislar deb ataymiz. Lutfiy va Atoyi g`azallarining badiiy qudrati shundaki, ular inson qalbining eng nozik va dildan otilgan tuyg`ularini ko`z oldimizda go`zal manzaraga aylantiradi. Barchamizga ma`lumki, g`azallarda asosan ishq mavzusi qalamga olinadi. Ushbu ikki shoir g`azallarida ham aynan ishq talqini orqali nozanin yor ta`rifi, uning bevafoqliklari-yu lirik qahramonning unga yetishish maqsadida chekkan azob-uqubatlari kabi mavzular hali hech bir ijodkor qalamga olmagan bebaho dur-gavharlar singari jozibali bo`lgan so`zlar bilan yoritilgan. Lutfiy va Atoyi ishqni faqat bir-biriga muhabbat qo`ygan qalblarning tuyg`usi sifatida emas, balki ruhiy yuksalish, komillikka intilish ramzi sifatida ham talqin qiladi. Jumladan, Lutfiyning “Ayting”, “Qiladurg`on bu ko`ngildur, bu ko`ngil”, “Derman” radifli g`azallarida mana shunday zohiriy va botiniy ma`nolar jo bo`lgan.

Lutfiy- o`zbek adabiyotining 15-asr ikkinchi yarmigacha bo`lgan davrlardagi eng mashhur lirik shoir hisoblangan. Shuning uchun ham zamonasining ahli adabi va ahli fuzalosi uni “malik ul-kalom”, ya’ni “so`z podshohi” deb e`zozlagan. G`azal mulkining sultoni bo`lgan Alisher Navoiy ham uni o`zining ustozlaridan biri, deb biladi va o`zigacha bo`lgan o`zbek she`riyatining eng kuchli, eng taniqli shoiri sifatida baholaydi. Shoir merosining umumiy miqdori uch ming baytga yaqin bo`lib, buning 75 foizini g`azal janri na`munalari tashkil etadi. Lutfiy garchi o`z ona tili-turkiy tilda yaratilgan g`azallari bilan mashhurlikka yetishgan bo`lsa-da, forsiyda ham o`zining shoirlik iqtidoriga va mahoratiga ko`pchilikni iqror eta olgan. Navoiy tabiri bian aytganda “forsiy va turkiyda naziri yo`q” shoir bo`lgan. Lutfiy g`azallaridagi bosh mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning hasbi holini tasvirlashdan iborat bo`lishi bilan bir qatorda betakror ohanglar yaratadi, mohiyatiga mos poetik obrazlar topadi, bir-biriga o`xshamaydigan badiiy san`atlarni qo`llaydi. Xususan, uning “Derman’ radifli g`azali ham mana shunday betakror ma`nolar bilan yoritilgan:

Qadu og`zingga boqsam, oh derman,
Seni ko`rgan sayin Olloh derman.

Ushbu baytning misralarida oshiq sevgilisining jozibasiga qarab hayratlanadi, qad-u qomatining navniholligidan, la`l kabi qirmizi labining go`zalligidan lol qoladi va “Olloh” deb takrorlaydi. Bu esa uning sevgi tuyg`usi naqadar yuksak ekanini, go`zallik orqali ilohiy mukammallikni ko`rayotganini bildiradi.

Tilar ko`nglim seni olamda bas,
Bu nisbatin seni dilxoh derman.

Oshiq uchun bu dunyoda yoridan ham suyukli va nozanin yor yo`q, uning istagi, maqsadi birgina yor, shuning uchun ham uning ko`ngli faqat sevgilisini istaydi, qalbining suyuklisi sifatida talqin etadi.

Meni haddim emaski, istasa vasl,
“Ko`z uchi birla boq goh-goh”- derman.

Ushbu baytning birinchi misrasida lirik qahramon yorning vaslini istayotgan mening haddim emas, balki buni xohlayotgan oshufta ko`nglimdir, deb aytib o`tmoqchi bo`ladi. Baytning ikkinchi misrasida esa oshiqning kamtarligi yaqqol ko`rinadi. U sevgilisining bir nazar tashlashi, bir ko`z qirini tashlab qo`yishini men uchun kifoya, deb biladi. Bu oshiqning sadoqatini va sevgi oldidagi kamtar holatini ko`rsatadi. Keyingi baytlarda shoir yorning qad-u qomatini, chiroyini ta`riflaydi.

Qusuri tab`din derman seni sarv,
Erur ul noravo bir oh derman.

Shoirning fikricha yor qomati sarv kabi tik va nozik bo`lib, tabiiy go`zallikning timsolidir. Ushbu misrada shoir tashbeh she`riy san`atidan ustalik

bilan foydalanib, yor qaddini sarv daraxtiga mengzaydi. Keyingi misrada oshiqning ichki kechinmalari ochib beriladi, ya'ni shoirning nazdida, sevgan yori shunchalik go'zal va mukammalki, uning chiroyiga hech nimani teng ko'rmaydi ya'ni 'noravo' deb biladi va sevgilisining go'zalligini ta'riflashga ojizlik qiladi, shuning uchun bu ojizlikdan "biroh" tortadi.

Etagingga kishining ilki yetmasm
Seni bu vajh ia men moh derman.

Yor shunchalik go'zal va pokki, uni ushlab ko'rish tugul hatto etagiga ham hech bir kishining qo'li yetmaydi. Shuning uchun ham oshiq o'z yorini chiroyda hammadan ustun ko'rib, tashbeh san'ati orqali uni hech kimning qo'li yetmas darajada uzoqlikda joylashgan "moh"- oy deya ta'riflaydi.

Sening qadding bilan nozik yururda,
Erur o'zga nima hamroh derman.

Bu baytda oshiqning tasvirlashicha, sevgilisining qomati go'zal va nozik bo'lib, bu go'zallikka boshqa biror narsa hamroh bo'la olmaydi. Shu ta'rif orqali yorni o'ziga xos yagonalik ifodalayotganini ko'rishimiz mumkin.

Jamoling Lutfi so'zin qildi rangin,
Sening husningg'a "shay'anlilloh" derman.

Bu yerda shoir "shay'annilloh" deb go'zallikni Ollohning bir mo'jizasi sifatida qabul qiladi. Sevgilisining jamoli oshiqning so'zlarini rangin qilgani, ya'ni uning she'riyatiga jon bergan.

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, bu g'azal sevgi va iztirobning kuchli birlashmasi bo'lib, shoir o'z sevgilisining go'zalligini ta'riflashda ilohiy go'zallikni solishtirib, uni mukammal tarzda tasvirlaydi.

Lutfiy g'azallarida qo'llangan so'zlarning ma'noviy nozikliklari shu darajada go'zalki, buni biz "Qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul" radifli g'azalining tahlilidan ham bilib olishimiz mumkin.

G'azal an'anaviy ishqiy mavzuda bitilgan. U yetti baytdan iborat bo'lib, aruz vaznining ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Hammamizga ma'lumki ko'ngul mumtoz she'riyatimizning asosiy tasvir manbasi hisoblanadi. Chunki tasavvuf ta'limotiga ko'ra Olloh kishining ko'nglidagina aks etadi. Ishq ham ko'ngil ishidir.

Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul,
Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
O'qdayin qomatimizni qora qoshlig'lar uchun
Muttasi yo qiladurgo'n bu ko'ngildur, bu ko'ngul.

Lirik qahramon ishq bobida barcha aybni ko'ngliga qo'ymoqchi: uni shaydo, xor-u rasvo qiladigan, o'qdayin tik qomatini qora qoshli yorlar uchun yoydek egib

qo'yadigan ham bu- ko'ngil ekanligini aytib o'tmoqchi bo'lgan. Ushbu baytda xor, rasvo tanosub, o'qdayin qomat kabi so'zlar orqali tashbeh, qora qosh kabi sifatlash orqali esa epiteta she'riy san'atlari hosil qilingan.

Meni yozg'urma: "Sevar",- debki, mening haddim emas,

Ul tamanno qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

"Borma,- derlar,- eshiki sori damo-dam",-netayin,

Ko'p taqozo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

Shoir yorga "Meni sevdi deb ayblama, buni istayotgan ham ko'nglimdir" deydi. U o'z mulohazalarini davom ettirar ekan:" Eshigiga tez-tez boraverma,- deyishadi,- lekin buni istayotgan ham ko'ngildir", u shuni taqazo qilsa men nima qilay deb oshiq nola chekadi.

Tori mo'yin havasi birla qorong'u kechada

Jonni savdo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

Dushman- u do'st orasida meni g'ofilni mudom,

Besar-u po qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

O'zgadin ko'rmoki ko'zung yoshini, ey Lutfiy,

Ayni daryo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

Ushbu baytlarda ham oshiq ko'ngilni ayblashda to'xtamaydi, qorong'u kechada yorning sochiga havasi kelib, jonni unga almashadigan ham, do'st-u dushman oldida g'ofil oshiqni boshsiz-oyoqsiz qilib qo'yadigan ham mana shu ko'ngul ekanligini aytib o'tadi.

G'azal maqtasida lirik qahramon Lutfiyga murojat qilib, bu oshiqlik ishini boshqadan ko'rma, yor ko'yida ko'z yoshlaringni daryoday to'kayotgan ham aynan mana shu ko'ngul deydi.

Lutfiyning ushbu g'azallari orqali ilohiy va muqaddas tushuncha bo'lgan majoziy ishq (insonning insonga bo'lga muhabbati) va haqiqiy ishq (insonning Ollohga bo'lgan muhabbati) kabi tushunchalar go'zal sartlar va quyma ma'nolarda yaqqol namoyon bo'lgan.

Lutfiy g'azallaridagi kabi bir-biriga o'xshamas tasvirlar, oshiq va yor o'rtasidagi ziddiyatlar, lirik qahramonning azoblari va go'zal yorning ta'rifi kabi mavzular Aoyining g'azallarida ham o'zgacha tasvirlar orqali yoritilgan. Navoiy ham uning ijodiga yuksak baho berib, " g'azallarini ko'p turkon, sodda, ravon aytur erdi.." deya ta'riflaydi. U o'z she'rlarida nozik hayol, sinchkov nigoh, baland did egasi ekanligini namoyish etadi. Go'zal, esda qoladigan o'xshatishlar, kutilmagan mubolag'ali tasvirlar yaratadi. Atoyi ma'shuqani turli holatlarda ko'rsatishga, uning javrini har xil nuqtalardan turib tasvirlashga mohir shoirdir. Buni:

Qon bo'ldi ko'ngul firoqi birla

Kuydi jonim ishtiyoqi birla.

Zulfig cheriki jamol mulkin

Oldi ko`zung ittifoqi birla.

matla`li g`azali misolida ko`rishimiz mumkin. Nihoyatda sodda va o`ynoqi bu g`azalda qizning o`xshashi yo`q zulfi, yuraklarni o`rtaguvchi ko`zlari, o`qday kipriklarini ko`rgan oshiq uning firoqida ko`ngli qon bo`ladi, ishtiyoqida joni kuyadi. Keyingi baytda esa soch va ko`z ittifoq qilib yor jamolining go`zalligini yanada oshirmoqda.

G`uncha sevunub to`nig`a sig`mas,

O`xshatsam, o`qing bashoqi birla.

Shoir nazdida, yorning kiprigi kamon o`qining uchiga o`xshaydi. Chunki o`q yoyni yaralasa, yor kiprigi oshiq yuragini nishonga oladi. Shu bois ochilmagan gulg`uncha o`zining yor kiprigiga o`xshash ekanini eshitib, "to`nig`a sig`may" ketadi, ya`ni ochiladi.

Majlisda chog`irdin el usursa,

Men jomi jamoli soqi birla.

To`squ tilamakka haddimiz yo`q,

Sog`in bore davr oyoqi birla.

Ishqida qora boshim oqardi,

Bir boqmadi ko`z qaroqi birla.

Dastlabki baytda shoir dunyo odamlari g`aflatda yoki may lazzatlariga berilgan bir paytda, o`zi may quyuvchi go`zal yor ya`ni ilohiy go`zallik sharobidan bahramand bo`lishini ta`kidlaydi. Keyingi baytda shoirning ichki iztirobini, hayotning qisqaligi va vaqtning shafqatsiz oqimini anglatadi. Inson hayotidagi vaqt to`xtamasligi, qo`yilgan to`siqlar esa bu oqim oldida ojiz ekanligin misrada yorqin aks ettirgan. Lirik qahramon yor ishqida harob ahvolga tushgan, uning ko`yida qora boshi oqarganini, shuncha azob- uqubatlar ko`rib tursa ham yor unga rahm qilib bir qiyo boqmaganligini kuyunchaklik bilan aytib o`tadi.

Ko`z o`ynatib o`ttilar ko`ngulni,

Ikki qoshi juft-u toq birla.

Oshiqqa jafo qilding, valekin

Asr-u dag`i yo`q, yiroqi birla.

Xo`blardin Atoyi lutf istar,

Xonlarg`a ne ish yasoqi birla.

Mashuqaning ko`zlari va juft-u toq yoysimon qoshlari oshiqning ko`nglini o`ziga rom qilgan. Oshiqning noz-karashma qilishi tufayli oshiqning ko`ngli xotirjamligini yo`qotib, unga mahliyo bo`lganini ifodalaydi. Keyingi baytlarda ma`shuqa oshiq qalbiga sitam yetkazmoqda, lekin bu javo qanchalik og`ir bo`lmasin, oshiq uchun davosi yo`q. Chunki ma`shuqaning jafosi ham oshiq uchun

yaqinlik, e'tibor kabi qabul qilinadi. Atoiy go'zallardan mehr iltifot istaydi, lekin shoir go'zallarning iltifotini olishda xonlar kabi zo'rma-zo'raki ta'sir o'tkazishni o'ziga ep ko'rmaydi.

Atoiy o'zining yana bir "Netti ne bo'ldi?" radifli g'azalida ma'shuqa achchiqtiziqlaridan nozlaridan hayratga tushgan oshiq holatini ifodalaydi. U yor g'azabiga duchor bo'ldi, lekin aybi nima ekanligini bilmaydi. Shu bois ham uni savollar qiynaydi.

Ey orazi shams-u qamarim, netti , ne bo'ldi?

Vey tishlari dur-u guharim, netti, ne bo'ldi?

Oshiq o'zini gunorkor sanaydi, ammo aybini bilmaydi. U ma'shuqa meni rashk etayotirmikan degan o'yga boradi:

Sen bor ekan o'zga kishi nazar etsam,

Chiqsun bu mening diydalarim, netti, ne bo'ldi?

Lirik qahramon chorasiz, u ishq yo'lida qurbon bo'lishga tayyor. Shu bois qay tarzda, qanday o'ldirilishi uni qiziqitirmaydi. Uning jon saqlash uchun yor yonidan ketgisi yo'q:

Gah javr bilan o'ltur meni, gah noz ila sendin,

Haqqoki, mening yo' guzarim netti, ne bo'ldi?

Bu g'azallarning barchasi Atoiyning o'zbekcha so'z kuchi va qudratini teran his etgani, uning latofatini ko'rsatish uchun katta kucha va mehnat sarflaganini ko'rsatadi. Xuddi shu narsalar adibdagi badiiy mahoratning nihoyatda yuksak darajasi haqida ham to'liq tasavvur berib turibdi.

Xulosa qilib shuni atib o'tishimiz joizki, yuqoridagi baytlardan ma'lum bo'ladiki, Lutfiy va Atoyining g'azallaridagi o'ziga xos turkona ohangdorlik, ta'sirchanlik va samimiylik kabi xususiyatlari o'sha davrdagi zamondoshlari ijodiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ularning ijodi nafaqat ishq, balki inson qalbining nozik tuyg'ularini chuqur ifodalashi bilan ajralib turadi. Lutfiy va Atoiy g'azallarida ishq o'zini anglash va ilohiy haqiqat sari yo'l topish vositasi sifatida tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 10-sinf Adabiyot darsligi 1-qism. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2017, B-67-68.
2. 8-sinf Adabiyot darsligi. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. B-48.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16 jild. Toshkent-2000. B-35.
4. <https://cyberleninka.ru>
5. <https://oliymahad.uz>